



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

O‘ZBEKISTONDA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA’MINLASH VA ATROF- MUHITNI MUHOFAZA QILISHNING DOLZARB MASALALARI

Azamova Sitora Ayonova

Shahrisabz davlat pedagogika instituti, dotsenti (PhD)

Suyunova Zarnigor Nodir qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti, 1-kurs talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekistonda ekologik xavfsizlikni ta’minlash va atrof-muhitni muhofaza qilishning dolzarb masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Zamonaviy davrda ekologik muammolarning kuchayib borishi, tabiiy resurslardan noo‘rin foydalanish, shuningdek, aholining ekologik ongini va madaniyatini oshirish zarurati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: ekologiya, ekologik xavfsizlik, ekologik muammolar, atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik ong, ekologik madaniyat.

АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ И ОХРАНЫ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ В УЗБЕКИСТАНЕ

Азамова Ситора Аёнова

Шахрисабзский государственный педагогический институт, доцент (PhD)

Суюнова Зарнигор Нодир кизи

Шахрисабзский государственный педагогический институт, студентка 1 курса

Аннотация

В статье научно анализируются актуальные вопросы обеспечения экологической безопасности и охраны окружающей среды в Узбекистане. Освещаются проблемы усиления экологических угроз в современный период, нерационального использования природных ресурсов, а также необходимость повышения экологического сознания и культуры населения.

Ключевые слова: экология, экологическая безопасность, экологические проблемы, охрана окружающей среды, экологическое сознание, экологическая культура.

TOPICAL ISSUES OF ENSURING ENVIRONMENTAL SECURITY AND ENVIRONMENTAL PROTECTION IN UZBEKISTAN

Azamova Sitora Ayonova

Shahrisabz State Pedagogical Institute, Associate Professor (PhD)

Suyunova Zarnigor Nodir qizi

Shahrisabz State Pedagogical Institute, 1st Year Student

Abstract

This article provides a scientific analysis of the topical issues of ensuring environmental security and environmental protection in Uzbekistan. It highlights the increasing severity of environmental problems in the modern era, the irrational use of natural resources, and the need to enhance public environmental awareness and culture.

Keywords: ecology, environmental security, environmental problems, environmental protection, environmental awareness, environmental culture.

Hamdamizga ma'lumki, 5-iyun BMT Assambleyasi tomonidan Xalqaro atrof-muhitni

muhofaza qilish kuni sifatida belgilangan. Ushbu sana hamjamiyat e'tiborini ekologik muammolarga qaratish, atrof-muhitni asrashga mas'uliyatli yondashuvni shakllantirish va tabiatni muhofaza qilishga bo'lgan ongni oshirishga xizmat qiladi. "Biz iste'mol qiladigan mahsulotlar, biz nafas oladigan havo, biz ichadigan suv, biz yashaydigan sayyoraga hayot bag'ishlovchi iqlim — barchasi tabiat tufayli. Ustiga ustak, hozir tabiatning o'zi bizga ishora bermoqda: o'z haqimizda qayg'urish uchun, avvalo, tabiatga g'amxo'rlik qilishimiz kerak. Hozir — uyg'onish davri. Muammolarni payqash uchun, ovozimizni ko'tarish uchun... Insoniyat uchun, Yer sayyorasi uchun yaxshiroq muhit yaratish vaqti. Bu Xalqaro atrof-muhitni muhofaza qilish kuni — tabiat vaqtidir" [1], deyiladi "Xalqaro atrof-muhitni muhofaza qilish — 2020" kun tartibida. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" nomli asarida: "Eng murakkab savollardan biri shuki, bizdagi barqarorlik va xavfsizlik yo'lida tahdid bo'lib turgan muammolarni anglab yetyapmizmi? Xavfsizlikka tahdid solib turgan muammolarga nimani qarshi qo'ya olamiz? ... Biz istiqomat qilayotgan mintaqada jo'g'rofiy-siyosiy muvozanat saqlanishiga nimalar kafolat bo'la oladi? Xavfsizlikni qanday saqlab qolish mumkin?" [2], degan savollar barcha o'zbek xalqining dolzarb muammolari sifatida kun tartibiga qo'yilgan.

Xavfsizlik keng ma'noli tushuncha bo'lib, u nafaqat inson, jamiyat va davlat, balki tabiat va uning elementlari nuqtayi nazaridan ham qaralishi mumkin. Negaki, ekologiya nafaqat insonlar, balki barcha tirik organizmlar o'rtasidagi hamda ularning atrof tabiiy muhiti bilan bo'lgan munosabatlarni o'rganadi.

Ekologik xavfsizlik tushunchasi turli olimlar tomonidan turlicha izohlanadi. Ularning ayrimlarida tushuncha mohiyati to'liq ochib berilsa, ayrimlarida munozaraga sabab bo'luvchi fikrlar ham uchraydi. Masalan, N. F. Reymers ekologik xavfsizlikka ikki xil yondashgan: 1) tabiat obyektlari, alohida inson va insoniyatning bevosita yoki bilvosita hayotiy muhim elementlarini zararlantirishga olib kelmaydigan faoliyat, vaziyat va jarayonlar uyg'unligi; 2) Yer shari va uning turli mintaqalarida insoniyatning tabiiy, iqtisodiy-ijtimoiy, texnogen va siyosiy tayyorgarligi darajasida ekologik muvozanatni ta'minlovchi vaziyat, jarayon va faoliyatlar majmuasi. T. Tillayev esa ekologik xavfsizlikni shaxs, aholi, sanoat va tabiat obyektlarini tashqi ta'sirdan himoyalanganlik darajasi sifatida izohlaydi. Lekin muallif ekologiyaning obyekti nafaqat inson, balki barcha tirik organizmlar bo'lishi mumkinligini hisobga olmagan. Bizning fikrimizcha, ekologik xavfsizlik — organizmlar va ularning yashash muhitining tabiiy va antropogen omillar ta'siri tufayli turli miqyos va tezlikda yuzaga keluvchi salbiy holatlardan saqlanganlik darajasidir. Bugungi kunda ekologik xavfsizlik muammosi allaqachon milliy va mintaqaviy doiradan chiqib, butun insoniyatning umumiy muammosiga aylangan. U kishilik jamiyatining buguni va ertasi uchun dolzarbligi va nihoyatda zarurligi bois eng muhim muammolar jumlasiga kiritilgan. Bu muammolar amaliy tarzda hal etilsa, ko'p jihatdan hozirgi va kelgusi avlod turmushining ahvoli va sifatini belgilash imkoniyati vujudga keladi. Iqtisodiyotning ishlab chiqarish bilan bog'liq tarmoqlarini ekologik jihatdan zararsiz texnologiyalar yordamida rivojlantirishni ta'minlash imkoniga ega bo'linadi.

Ekologik muammolarni hal etish barcha xalqlarning manfaatlariga mos bo'lib, sivilizatsiyaning bugungi kuni va kelajagi ko'p jihatdan ana shu muammoning hal qilinishiga bog'liqdir. Taraqqiyotning hozirgi bosqichida inson bilan tabiatning o'zaro ta'siriga oid bir qator muammolarni hal etish faqat bir mamlakat doirasida cheklanib qola olmaydi. Ularni butun sayyoramiz ko'lamida hal qilish zarur.

Markaziy Osiyo sharoitida yer Alloh taoloning bebaho in'omidir. U tom ma'noda insonlarni boqadi, kiyintiradi. Yer ulkan boylik bo'libgina qolmay, mamlakatning kelajagini belgilab beradigan omil hamdir. Bu hol O'zbekistonda ayniqsa yaqqol ko'zga tashlanadi, chunki yerning iqtisodiy va demografik vazifasi yildan yilga kuchayib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini e'lon qilguniga qadar tabiiy atrof-muhitni himoya qilish va tabiiy resurslardan foydalanish bo'yicha ishlab chiqilgan qonun va me'yoriy

hujjatlarga sobiq ittifoq manfaatlari doirasida amal qilinar edi. Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha boshqaruv va nazorat ishlari bir necha tashkilotlar vakolatiga yuklatilgan bo'lib, tabiatni muhofaza qilish tashkilotlari yagona tizimga birlashmagan, aksariyat hollarda bir-birlarining funksiyalarini takrorlagan, kuch va mablag'lardan foydalanish esa tarqoq holda bo'lgan. Natijada tabiatni muhofaza qilish ishlarining samaradorligi pasayib ketgan. O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi va respublikaning ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlariga o'tishi munosabati bilan tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni boshqarish tizimi hamda uning huquqiy asoslarini kafolatlovchi qonunlar va me'yorlar ham tubdan o'zgardi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 27-maydagi 142-sonli qaroriga asosan "2013–2017-yillarda O'zbekiston Respublikasida atrof-muhit muhofazasi bo'yicha Harakatlar dasturi" qabul qilindi. Ushbu dasturni bajarish quyidagi beshta asosiy yo'nalish bo'yicha amalga oshirildi:

— aholi va davlat uchun yashash muhiti hamda ekologik xavfsizlik darajasining kafolatlangan va qulay shart-sharoitlarini yaratish;

— iqtisodiy tarmoqlarni ekologizatsiyalash, texnologik jarayonlarni va tabiatni muhofaza qilish faoliyatini takomillashtirish;

— atrof-muhitning ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyati chiqindilari bilan ifloslanishining oldini olish;

— atrof tabiiy muhit muhofazasi va tabiatdan foydalanish, ekologik ta'lim hamda barqaror rivojlanish maqsadlaridagi ta'lim sohasida tabiatni muhofaza qilish qonunchiligi va me'yoriy-uslubiy bazani rivojlantirish;

— tabiatni muhofaza qilish faoliyatini takomillashtirish va tabiiy muhitning transchegaraviy ifloslanishining oldini olish bo'yicha mintaqaviy hamda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish [3].

Shuningdek, xalqimizning milliy boyligi hisoblangan har bir tabiat obyektining yangicha huquqiy holatini belgilovchi Yer kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida", "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida", "Yer osti boyliklari to'g'risida", "O'simliklar dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida", "Chiqindilar to'g'risida"gi qonunlari moddiy boyliklarimiz asosi bo'lgan tabiiy resurslarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishga oid munosabatlarni huquqiy tartibga solishda yangicha mazmun kasb etdi. Ishonch bilan aytish mumkinki, tabiatni, biosferani saqlab qolish va uni asrash ko'p jihatdan inson faoliyati, ayniqsa ekologik-huquqiy savodxonlik, ekologik-huquqiy ta'lim va tarbiya bilan bog'liq. Tabiat mutanosibligining buzilishi, tabiiy resurslarning kamayib borishi va atrof-muhit ifloslanishining 90–97 foizi insonlarning xo'jasizlarcha faoliyat yuritishlari sababli yuz bermoqda [4]. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, tabiiy resurslardan oqilona foydalanmaslik va ularni ekologik muhofaza qilish talablariga rioya qilmaslik, iqtisodiy rivojlanishda ekologik talablarni inkor etish tabiat boyliklarining kamayib ketishiga, ekologik muvozanatning buzilishiga, jamiyatning esa inqiroz holatiga tushib qolishiga va ekologik xavf paydo bo'lishiga olib keladi [5].

Tabiat muhofazasini amalga oshirishda har qanday chora-tadbirlarni qo'llash bilan birga, aholining ekologik ongi va madaniyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ekologik ong va madaniyat tabiatni asrab-avaylaganda, unga ongli munosabatda bo'lganda, boyliklaridan me'yorida foydalanganda, noxush hodisalarning oldini olishda namoyon bo'ladi [6]. Ekologik tarbiyalanmagan kishi tabiatni e'zozlay olmaydi. Ekologik madaniyat "tabiat — jamiyat — inson" tizimidagi qismlarning o'zaro munosabatlarini muvofiqlashtiradigan, insoniyatga borliqdagi barcha mavjudotlarning dialektik bog'liqligini anglatadigan, atrof-muhit musaffoligini saqlashga undaydigan va shu orqali butun koinotni tanazzuldan saqlashga xizmat qiladigan falsafiy-axloqiy kategoriyadir.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda ekologik xavfsizlikni ta'minlash va atrof-muhitni muhofaza qilish bugungi kunda eng muhim va dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ekologik

muammolarni bartaraf etish va kelajak avlod uchun sog'lom tabiiy muhitni saqlab qolish jamiyatning barcha qatlamlari hamkorligida amalga oshirilishi zarur. Shundagina barqaror rivojlanish va ekologik xavfsiz jamiyatni ta'minlash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan 2-nashr. — Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2022. — 416 b.
2. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. — Toshkent: O'zbekiston, 1997.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 27-maydagi 142-son qarori.
4. Azamova S. A. Ekologik globallasuv sharoitida O'zbekiston ta'lim muassasalarida ekologik madaniyatning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari. — Andijon, 2024.
5. Sultonov P. S. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish asoslari. — 2007.
6. Nig'matov A. Ekologiya nima? — Toshkent, 2005.